XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 10-dekabr VII-15-149-12-0-K/25 Xorazm viloyati

Urganch shahrida maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-sonli Farmonining 1-ilovasining 4-bosqichida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari maishiy chiqindi xizmatlari tariflarini qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash belgilangan.

Viloyat hokimligining 2025-yil 20-noyabrdagi 03-09/11999-sonli xati hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 13-noyabrdagi Xorazm viloyati “Toza hudud” DM Urganch filiali tomonidan jismoniy shaxslarning qattiq va maishiy chiqindilarini tashib ketish xizmatlari narx (tarif)i (QQS bilan) 7 600 so‘m (bir kishi boshiga bir oyda) hamda yuridik shaxslarning qattiq va maishiy chiqindilarini tashib ketish xizmatlari narx (tarif)i 1 m^3 uchun (QQS bilan) 92 730 so‘m miqdoridan oshmagan holda belgilash yuzasidan 02-17-33-39/8-sonli xulosasiga asoslanib, Urganch shahar hududidan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, shaharning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Urganch shahrida maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini miqdorini tasdiqlash to‘g‘risidagi viloyat hokimligining 2025-yil 20-noyabrdagi 03-09/11999-sonli xati hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 13-noyabrdagi 02-17-33-39/8-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Urganch shahrida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosari S.Bekchanov belgilangan tartibda Urganch shahrida maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari (narxlari) miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida viloyat hokimining qarori loyihasini ishlab chiqsin.

4. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish viloyat boshqarmasi (B.Sabirov), viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (K.Tangriberdiyev), viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi (M.Samandarov) Urganch shahar hokimligi bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH**

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 10-dekabrdagi
VII-15-149-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Urganch shahrida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki madel raqami**	**O‘lchov birligi**	**Tarif miqdori (so‘m)**
Aholi uchun (1 fuqarodan 1 oyda) (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda bir fuqaro uchun	7 600
Yuridik shaxslar uchun (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m^3	92 730